

DOI: 10.5281/zenodo.15695678

Link: <https://zenodo.org/records/15695678>

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH ORQALI AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISH

Boltayev Nurali Shiramatovich

Toshkent davlat agrar universiteti

Biznesni boshqarish kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

E-mail: nurali.boltayev1991@gmail.com

ORCID: 0009-0007-9142-6080

***Annotatsiya.** Malakali kadrlar har bir sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada agrar soha uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qabul parametrlari, rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilgan. Rivojlangan davlatlarda agrar soha uchun kadrlar tayyorlash tizimi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bo'yicha tahlil qilingan bo'lib, ularni respublikamizda qo'llash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** agrar soha, malakali, oliy ta'lim, rivojlantirish, boshqarish, kadrlar tayyorlash, qo'llab-quvvatlash, davlat.*

KIRISH

Bugun jahonning rivojlangan davlatlarida aholining, ayniqsa, yoshlarning qishloqdan shaharga ko'chishi kuzatilishi natijasida urbanizatsiya jarayoni jadallashib bormoqda. Bu esa agrar sohani yetarli darajada mehnat resurslari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu muammo, o'z navbatida, iqtisodiyotning agrar sohasida ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqarishi va mehnat unumdorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agrar sohada kadrlar muammosining vujudga kelishi kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, tuproq sifati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, zararkunandalar, kasalliklar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq og'ir ekologik sharoitlarga chidamli ekin navlarini yaratish, yerlarni degradatsiyaga qarshi kurashish jarayoni, iqlim o'zgarishiga moslashish, tuproq unumdorligini oshirish masalalarini hal etishda malakali mutaxassislar tayyorlash hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi. Buning uchun, agrar sohadagi oliy va professional ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda kasbiy malakalarini yanada rivojlantirish, rahbar va pedagog-kadrlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ta'lim sifati va o'quv jarayoniga bog'liq bo'lgan o'quv va infratuzilma elementlarini integratsiyalash, tezkor rivojlanish va raqobatlashish davrida sifatni ta'minlash mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

Agrar sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ilg'or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-216-sonli[1], 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-sonli “Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari[2], Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrda 788-sonli “Agrar ta'lim

tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida[3] belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirishda malakali tayyorlash orqali agrar sohani sanoat darajasiga olib chiqish hamda bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuning bilan birga, prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil davlatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb belgilandi. Ona-tabiatni asrab-avaylash, yoshu-keksalarda atrof-muhit va ekologik omillarni hisobga olgan holda turmush-tarzini olib borish, asosiysi yildan-yilga tabiiy resurslar kamayib borayotgan bir davrda tejamkorlikka ahamiyat qaratish har doimgidan ham dolzarbdir. Bunday vazifalarni samarali amalga oshirishda esa, oliy ta’lim muassasalarini o‘rni beqiyosdir. Agrar soha bo‘yicha kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalarining rahbariyati, professor-o‘qituvchilari, talabalar o‘z tashabbuskorligini, innovatsion g‘oyalari, ilmiy-tadqiqot ishlari, startap-loyihalari bilan yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda jamiyatimizga namuna bo‘lishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda **“Hamma narsani kadrlar hal qiladi”** qoidasi o‘z dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmaganligini ta’kidlash joizdir. Iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarning integrallashgan shaklda faoliyatini tashkil etish va O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan ko‘rsatkichlar va vazifalarni samarali ijro etishda inson resurslari muhim hisoblanadi. Har bir sohada xodimlar bilan ishlash jarayonida ularning shaxsiy xususiyatlari va shaxsiy xarakteristikalaridan kelib chiqib, yondashishni talab etadi. Ya’ni, har bir soha va tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

Jahon olimlari tomonidan har bir sohani jadal rivojlantirishda ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish jarayonida malakali kadrlarni o‘rnini alohida ta’kidlashadi. Chunki, raqamli texnologiyalarni boshqarish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda kreativ fikrlaydigan, tezkor qaror qabul qiladigan va zamonaviy bilimlarni egallangan kadrlarga bog‘liq bo‘ladi.

Jumladan, Zoya Kapelyuk va boshqalar iqtisodiyotning agrar sektorida yosh va malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog‘liq asosiy muammolarni aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlarini olib borgan. Agrar sohadagi muammolarni hal qilish uchun kadrlar tayyorlash tizimini o‘zgartirish, uzluksiz qishloq xo‘jaligi ta’limiga o‘tish, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda qishloq mehnatkashining ijobiy qiyofasini shakllantirish zarurligi, shuningdek, universitet va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limini takomillashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘z mehnat faoliyati davomida eng so‘nggi ilmiy va amaliy innovatsion yutuqlarni uzluksiz o‘zlashtirish imkoniyatini ta’minlashi lozimligini ta’kidlashgan. Raqamlashtirish sharoitida yangi qishloq xo‘jaligi bilimlari va ilg‘or tajribalarni uzluksiz o‘zlashtirish modelini taklif etgan[4]. Bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda raqamlashtirish, sun‘iy intellektdan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bizning fikrimizcha, agrar sohani raqamlashtirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanishda hosildorlikni bir necha barobarga oshirish jarayonini monitoring qilish uchun kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Lorena C. Espina-Romero va boshqalar tomonidan har bir sohada xodimlarni yumshoq ko‘nikmalar (Soft skills, ya’ni bu har qanday ishda muvaffaqiyatga erishish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar)ni o‘rganish qiziqishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotda 1999-2021 yillar davomida kadrlar tayyorlashda soft skills bilan bog‘liq Scopus bazasidagi 753 ta nashrni tahlil qilishgan. Ushbu hujjatlar asosiy ma’lumotlarida eng ko‘p o‘rganilgan sohalarida kelajakdagi kun tartibini belgilash, istiqbolli rejalarni amalga oshirish, bugungi kun natijalarini tahlil qilish bo‘yicha o‘zlarining yondashuvlarini taklif etgan[5]. Albatta, agrar sohada kadrlar tayyorlashda uning o‘ziga xos xususiyatlari, yer-suv bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy omillarni hisobga olish, atrof-muhitni asrashga va cheklangan resurslar salohiyatidan unumli foydalanishni taqozo qiladi.

W.Wenjie va A.A.Kurbanbaevalar qishloq xo‘jaligi korxonalarida xodimlarni boshqarish strategiyasi turli jihatlarni qamrab olishini, jumladan, xodimlarni yollash va tanlash, o‘qitish va rivojlantirish, motivatsiya va xodimlarni saqlab qolishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirish masalasi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Bunda, mehnat munosabatlari va ijtimoiy-madaniy jihatlar bilan bog‘liq muammolarni hal etish, xavfsizlik va mehnat sharoitlarini ta’minlash, qulay ish muhitini yaratish zarurligini asoslab bergan[6]. Bizning fikrimizcha, respublikamizda qishloq xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv usullari, psixologiya, mehnat munosabatlari, raqamlashtirish kabi fanlarni o‘qitish lozim bo‘ladi. Ya’ni, belgilangan vazifalarni ijrosini ta’minlash uchun xodimlar bir-birlari bilan o‘zaro munosabatga kirishganda muloqot madaniyatiga amal qilishi lozim bo‘ladi.

Respublikamiz olimlaridan A.J.Toshboyev, Z.T.Siddikov, N.Sh.Boltayevlar O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti va agrar soha islohotlarni amalga oshirish va kutilgan natijalarga erishish bevosita ushbu jarayonlarni tashkil etuvchi professional kadrlarga bog‘liq ekanligi, ya’ni, agrar sohada yuqori natijalarga erishishda mutaxassis kadrlardan yuksak bilim, salohiyat va kasbiy mahorat kabi sifatlarni talab etishini ta’kidlagan. Bundan tashqari, har bir soha, yo‘nalish bo‘yicha har bir korxon va tashkilotda kadrlar boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etish, har bir ishga zarur bilim va salohiyatga ega bo‘lgan eng malakali kadrlarni joy-joyiga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni samarali bo‘lishida ekonometrik tahlil orqali, omillar ta’sirini baholashga asoslangan tahlillar olib borilgan. Bunda, agrar soha uchun kadrlar tayyorlaydigan Toshkent davlat agrar universitetida bitiruvchilarning ish bilan bandlik ko‘rsatkichini natija sifatida belgilangan bo‘lsa, uning o‘zgarishiga professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, bitiruvchi tayyorlanayotgan muassasaning ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorligi, ta’lim muassasasidagi ilmiy izlanishlar darajasi, ta’limning xalqaro tajribalarga uyg‘unligi, o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi kabi bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisobga olingan[7]. Shuningdek, ushbu omillar natijasida malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish istiqbollari belgilangan.

Shuningdek, N.Maxmudov va N.Boltayevlarning Agrar sohada malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish (2024) nomli monografiyasida mehnat

unumdorligini oshirish, intensiv texnologiyalardan foydalanish natijasida sohada iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ta'kidlangan. Malaka kadrlar nafaqat agrar soha rivojida muhim ahamiyat kasb etishi, balki sanoatni ham barqaror o'sishida asosiy rol sifatida qayd etilishi belgilangan[8].

Qishloq xo'jaligida kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish, rivojlantirish, mutaxassis-kadrlarning mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan, J.O.Kucharov o'z ilmiy izlanishlaridan qishloq xo'jaligida talab etiladigan kadrlar soni me'yorlarini aniqlash uslubi mehnatning intensivligi, mehnat unumdorligi va mehnat tejamkor texnologiyalardan foydalanish ko'lamini hisobga olish, qishloq xo'jaligida malakali kadrlarni tayyorlash, fan-ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlashni davlat tomonidan soliq, moliya va kredit dastaklari hamda autstaffing xizmatlarini rivojlantirish orqali rag'batlantirish, agrar ta'lim muassasalariga yangi ta'lim shakli va usullarini samarali joriy etish maqsadida “Qishloq xo'jaligida zamonaviy ta'lim shakllarini sinash va joriy etish markazi”ni tashkil etish va uni moliyalashtirish asosida faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etilgan[9]. Fikrimizcha, qishloq xo'jaligida tayyorlanayotgan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi uchun yangi ta'lim shakllari va usullarini samarali joriy etish asosida mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin bo'ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalariga xususiy sektorni jalb etish orqali ilm-fan ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish, moliyaviy resurslarni jalb etish orqali sohani jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Maqolada malakali kadrlar tayyorlash orqali agrar sohani rivojlantirishning asosiy jihatlarini tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida agrar soha uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, hududlarda oliy va professional ta'lim muassasalari soni oshib bormoqda. Bu albatta, respublika bo'yicha faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari oldiga mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yadi. “Mamlakatimiz bo'yicha 2024-yilda oliy ta'lim muassasalarida jami 1,1 mln.dan ortiq talabalar tahsil olayotgan bo'lsa, shundan, agrar yo'nalishlarida 100 mingdan ortiq mutaxassislar tayyorlanmoqda”. Agrar yo'nalishlarda kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalariga ilm-fan va ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, o'zgaruvchan mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish hamda shu orqali agrar ta'lim tizimini rivojlantirish va bozor mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi. Chunki, so'nggi

yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining salmog'i 20 foizni tashkil etmoqda. Shunday ekan, agrar yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash, yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini ko'paytirish, importni qisqartirish, sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlash, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, klaster, fermer, kooperativlar va boshqa qishloq xo'jaligi sub'ektlarining barqaror faoliyat olib borishida zamonaviy bilimlarni egallagan, raqamli texnologiyalardan erkin foydalana biladigan, muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qilish, fikrlash kreativligi yuqori hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etadigan mutaxassislar zarurdir.

O'zbekistonda agrar oliy ta'lim respublika oliy ta'lim tizimining katta ulushiga ega. Respublikada asosiy agrar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan OTMLar (Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti) kunduzgi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlari tahlil qilindi (1-jadval). 2017-yilda jami respublika bo'yicha 66316 nafar qabul kvotalari ajratilgan bo'lsa, shundan agrar ta'lim muassasalariga 3425 nafar qabul kvotalari ajratilgan. Shuning bilan birga, 2023-yilda 2017-yilga nisbatan agrar ta'lim muassasalariga 187 %ga (6400 nafar) qabul kvotalari oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi OTMLarga bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kunduzgi shakl bo'yicha 2017-2023 yillarda qabul parametrlari

№	Oliy ta'lim muassasalari nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2017-yilga nisbatan, %
Respublika bo'yicha jami		66316	69200	80 430	103 575	113 530	123 060	127 259	192
Shundan: (Q/x vazirligi tizimidagi OTMLar bo'yicha)		3425	1850	2450	4150	4639	6454	6400	187
1	Toshkent davlat agrar universiteti	1495	750	885	1350	1681	2858	2575	172
	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni	18	20	20	25	32	41	37	206
2	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti				475	450	600	550	115
	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni				16	16	18	16	100
3	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	1000	500	735	1150	1179	1327	1375	138
	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni	14	12	19	26	29	39	38	271

4	Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	300	300	450	600	702	802	775	258
	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni	9	13	18	19	19	25	17	189
5	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	630	300	380	575	627	867	1125	179
	Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari soni	17	19	19	21	22	29	24	141

Manba: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

<https://www.lex.uz/>

Bu albatta, agrar soha uchun kadrlar tayyorlash muhim hisoblanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu oliy ta'lim muassasalarida 2018-2019 yillarda tor ixtisosliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi natijasida qabul parametrlari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini bir necha barobarga kamayganligini ham alohida ta'kidlash joizdir.

Mamlakatning barqaror taraqqiy etishi, rivojlanishini ta'minlovchi islohotlarning ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi, ko'zlangan natijalarga erishilishi bevosita mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi mutaxassis kadrlar va ularning innovatsion menejment bo'yicha egallagan bilimlari bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, islohotlarning yo'nalishlarini va erishiladigan natijalarni to'g'ri belgilash mutaxassis kadrlardan yuksak bilim, salohiyat, professional ko'nikmalar kabi sifatlarni talab qiladi. Bundan tashqari har bir soha, yo'nalish bo'yicha har bir korxonada va tashkilotda kadrlar menejmentini to'g'ri tashkil etilishi, har bir ish o'rniga eng malakali, zarur bilim hamda salohiyatga ega kadrlarni joylashtirishi muhimdir.

Agrar ta'lim yo'nalishlari oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish hamda malaka kadrlar tayyorlash parametrlarini oshirish, shuningdek, agrar soha bo'yicha zamonaviy kasblar bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash zarurdir. Chunonchi, agrar sohani zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, kreativ fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan hamda o'z sohasining haqiqiy jonkuyarlarini tarbiyalash lozimdir.

Hozirgi kunda jahon bo'ylab har bir yo'nalish bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar, yangilanishlar yuz bermoqda, shunga monand yangi kasblar va mutaxassisliklar yuzaga kelishi bilan bir qatorda, ayrim kasblar va mutaxassisliklarga talab yo'qolib bermoqda.


O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi eng muhim ustuvor, pirovard maqsad ham aynan zamon talablariga mos mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, yuksak salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash va yetkazishdan iboratdir. Aynan mana shu yo'nalishdan kelib chiqib, agrar sohada kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bilamizki, agrar sohada juda keng yangilanishlar va o'zgarishlar yuz bermoqda va bu zamon talabidir. Chunki, agrar sohada jamiyatning oziq-ovqat hamda aksariyat

birlamchi ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlar yaratiladi. Agrar sohada kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning obyektiv zarurati shundaki, hozirda aholi soni muttasil ortib bormoqda, shu bilan birga ularning oziq-ovqat va boshqa birlamchi ehtiyojlari ham ortib bormoqda, biroq bunday mahsulotlar yaratuvchi yer resurslari esa cheklangandir. Agar yer resurslaridan foydalanishdagi rentabellik darajasi hozirgi holatda qoladigan bo‘lsa, kun kelib insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirishning iloji bo‘lmay qoladi. Shuning uchun ham yerdan foydalanishning samaradorligini oshirish, rentabellikni ko‘tarish davr talabidir. Bunga esa malakali, zamonaviy, yetuk bilimli kadrlarni tayyorlash, kerakli sohalar bo‘yicha mutaxassislarni tarbiyalash, kadrlar menejmentini samarali tashkil etish orqali erishiladi.

Shu nuqtai nazardan, “agrar sohada tayyorlanayotgan kadrlarga hozirgi kunda qanchalik zarurat bor?”, “ular ta’limni yakunlagach ish joylariga ishga joylashishmoqdami?” kabi savollar orqali agrar sohada kadrlar tayyorlashning amaldagi holatiga baho beriladi, mavjud kamchiliklar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Masalan, 2021 yilda Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti bitiruvchilarining umumiy bandlik darajasi 94,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, shundan bakalavriat bitiruvchilarining bandlik darajasi 93,5%, magistratura bitiruvchilarining bandlik darajasi 96,03%, doktorantura bitiruvchilari bandligi 95,75% ni tashkil etgan. O‘tgan yillarga nisbatan Xitoyda ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirayotgan talabalar soni ortib bormoqda. Bu aynan qishloq xo‘jaligi sohasiga bo‘lgan talabning ortib borishi mamlakat bo‘ylab kadrlarning taqsimlanishi ijobiy tomonga o‘zgarishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, universitetda bitiruvchilar o‘rtasida ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishga intilishlari ko‘zga tashlanadi.



1-rasm. 2021 yilda Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti bitiruvchilarining bandlik ko‘rsatkichi[10]

Universitet bitiruvchilarining ko‘rsatkichlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, 15 foiz bitiruvchilar chet elda o‘qishini davom ettirayotganligi, 36 foiz bitiruvchilar o‘qishni tugatib o‘z yo‘nalishlari ishlayotganligi, 42 foiz bitiruvchilar ta’limning

keyingi bosqichlari magistratura va doktoranturada o‘qishini davom ettirishi hamda 7 foiz bitiruvchilar boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlarini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).

Bu borada, respublikamizda agrar yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash bo‘yicha yoshlar uchun agrar ta‘limning jozibadorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining mehnat bozoridagi mavqeini oshirishni taqozo etadi. **Birinchidan**, abituriyentlarni qaysi ta‘lim sohalariga o‘qishga hujjat topshirish darajasi tahlil qilinganda, bir o‘ringa nisbatan tibbiyot va huquq sohasiga 25 ta, iqtisodiyot sohasiga 12 ta, axborot texnologiyalari sohasiga 10 ta, qishloq xo‘jaligi sohasiga 3 tani tashkil etmoqda. Ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi sohasiga qiziquvchi yoshlar yildan-yilga kamayib bormoqda. Vaholanki, qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat va bandlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Yana bir jihat, qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha o‘qishga tavsiya etilganlarning o‘qishni davom ettirish ko‘rsatkichi 67 %ni tashkil etadi. Shunday ekan, agrar yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashning jozibadorligini oshirish bugungi kun talabi. Masalan, xorij tajribasida Xitoyda yoshlarni agrar ta‘limga jalb qilish maqsadida qishloq hududlaridan kelgan yoshlar uchun maxsus grant va stipendiya dasturlari joriy etilgan. Germaniyada amaliy ta‘limga asoslangan “duale ausbildung” tizimi orqali talabalarga o‘qish va ishlab chiqarishni birgalikda olib borish imkoniyati yaratilgan. Braziliyada talabalarni kafolatli ish o‘rinlari bilan ta‘minlash uchun qishloq xo‘jaligi korxonalarini bilan 1-kursdan shartnomalar tuziladi. Vengriyada maktabdan boshlab yoshlarni qishloq xo‘jaligi kasb-hunar va mutaxassisliklariga yo‘naltirish dasturi amalga oshiriladi. Rossiyada qishloq xo‘jaligi sohasida tahsil olayotgan talabalarga bir vaqtda 2 – mutaxassislik (double degree) bo‘yicha diplom olish imkoniyati yaratilgan. Turkiyada qishloq xo‘jaligi sohasini ommaviy targ‘ib qilish uchun media dasturlari yaratilgan. Shu bois, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini agrar yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash jarayonida amaliyotga tadbiiq etish zarur bo‘ladi.

Ikkinchidan, agrar sohada tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozoridagi mavqeini oshirishda ularning bandlik darajasi ham asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich asosida kelgusida ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoni va ta‘lim sifatini oshirish chora-tadbirlari belgilanadi. Jumladan, agrar sohada ish o‘rinlari barqaror emasligi hamda 33,4 ming ta bo‘sh ish o‘rni mavjuddir. Bugungi shiddat bilan o‘sib borayotgan zamonda, qishloq xo‘jaligi kasblarini yoshlar o‘zlari uchun jozibadorligi past yoki daromadi yuqori emas soha deb hisoblaydi. Shu o‘rinda, agrar yo‘nalishlarda bitiruvchilarning bandlik darajasi 2022/2023 o‘quv yilida 44,0 foiz, 2023/2024 o‘quv yilida 51,7 foizni tashkil etmoqda. Ish haqi darajasi esa 2023 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, moliya va sug‘urta sohasida 13 323,0 ming so‘m, axborot va aloqa sohasida 10 596,0 ming so‘m, ishlab chiqarish sanoati sohasi 5 456,9 ming so‘m, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi 3 006,5 ming so‘m, qishloq xo‘jaligi 2 706,8 ming so‘mni tashkil etib, respublikada o‘rtacha ish haqi 5 459,7 ming so‘mni tashkil etadi.

Agrar sohada tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozoridagi mavqeini oshirishda xorijiy tajribalarga e‘tibor qaratsak, Janubiy Koreya hukumati yoshlarni

qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha bandligini ta‘minlash maqsadida 3,8-15,0 ming dollargacha subsidiya ajratish va soliq imtiyozlarini berish tizimi mavjud.

Germaniya qishloq xo‘jaligida ishlashni yoki qishloq joylarida o‘z biznesini rivojlantirishni istagan yoshlar uchun turli dasturlar mavjud. Ushbu dasturlar doirasida 5 yilga 25-40 ming yevro miqdorida subsidiya va grantlar ajratadi.

Xitoy hukumati yoshlarni qishloq joylariga jalb qilish maqsadida 1,4-7,0 ming dollargacha aylanma mablag‘lar uchun, shuningdek, agrobiotexnologiya, barqaror qishloq xo‘jaligi va aqlli qishloq xo‘jaligi uchun 4,2-28,0 ming dollargacha subsidiyalar va grantlar ajratadi.

AQSh hukumati tomonidan **Farm to School** dasturi doirasida, fermerlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari maktablarga arzonlashtirilgan narxlarda yetkazadi. Maktab o‘quvchilari fermalarga tashrif buyurib, sohaga qiziqishlari ortadi. 1000 ta loyihaga 75 mln. dollar grant ajratiladi.

XULOSA

Agrar soha rivojida malakali kadrlar tayyorlash davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Agrar sohada ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish asosida ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, tabiiy omillar ta‘sirini e‘tiborga olish, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektdan samarali foydalanish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, xorijiy investitsiya mablag‘larini jalb etish, ilmiy loyihalar ko‘lamini kengaytirishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ta‘lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, Aqsh, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Gollandiya davlatlarining agrar yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari tajribalarini respublikamizda qo‘llash, sohani rivojlantirish natijasida sanoatni xom-ashyo bilan ta‘minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta‘lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-sonli “Agrar ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabdagi 788-sonli “Agrar ta‘lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

4. Zoya Kapelyuk, Irina Shchetinina, Anna Aletdinova, Svetlana Gorodkova, Yulia Derevyanko. Prospects of personnel training for the agricultural sector in the conditions of digitalization. Article. BIO Web of Conferences 52, 0041 (2022). FIES 2022. <https://doi.org/10.1051/bioconf/20225200041>

5. Lorena C. Espina-Romero, Sandra Lucia Aguirre Franco Helga Ofelia Dworaczek Conde, Jesús M. Guerrero-Alcedo Doile Enrique Ríos Parra, Juan Carlos Rave Ramírez. Soft skills in personnel training: Report of publications in scopus, topics

explored and future research agenda. Article. Heliyon 9 journal (2023) e15468. Page. 1-14. journal homepage: www.cell.com/heliyon.

6. W.Wenjie, A.A.Kurbanbaeva. Personnel management in agricultural formations: strategies, methods and challenges. Article. Izdenister, natijeler – Issledovaniya, rezultaty. №2 (102) 2024, ISSN 2304-3334. DOI <https://doi.org/10.37884/2-2024/60>

7. Abduraim Toshboev, Zohid Ziddikov and Nurali Boltaev. Prospects for the training development of qualified personnel in the agricultural education system: a case study from Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan. Article. E3S Web of Conferences Volume 389 (2023) Ural Environmental Science Forum “Sustainable Development of Industrial Region” (UESF-2023) Chelyabinsk, Russia, April 25-28, 2023.

8. N.M.Maxmudov, N.Sh.Boltayev. Agrar sohada kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini oshirish (monografiya) // Toshkent: “Behzodbek Print” nashriyoti, 2024. – 224 bet.

9. J.Kucharov. Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘llari.// Avtoreferat. 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi. Toshkent-2021.: 52 bet.

10. <https://www.cau.edu.cn> - Xitoy qishloq xo‘jaligi universiteti sayti.